

BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINI ODOB-AXLOQ RUHIDA TARBIYALASHDA O`QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH

Pirjanova Asemay, Mambetova Gulnur, Jadigerova Kamilla

Ajiniyoz nomidagi NDPI Boshlang`ich ta'lim yo`nalishi 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarining odob-axloq ruhida tarbiyalashda o`qituvchining ta'lismi-jarayonidagi ma'suliysi, ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan bolaga nisbatan amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalari va bunda boshlang`ich sinf o`qituvchisining pedagogik mahoratining aahamiyati haqida to`xtab o`tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lismi, tarbiya, kasb, mahorat, tekshirish, tajriba, diagnostika, talab, iste'dod, suhbat, kuzatish, madaniyat, ma'suliyat.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020- yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida shu yurtning fuqarolarining salomatligi ta'lismi va farovonligi haqida katta dolzarb masalalarni ko'tarib chiqdi. Bunda O'zbekiston xalqini turmush sharoitini tubdan o'zgartirish, yaxshilash, hammabop va sifatli ta'lismi rivojlantirish yo'lida katta tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan, Prezident o'z ma'rzasida: "O'zbekiston Respublikasining yoshlarni tarbiyalashda oldinga qo'yayotgan asosiy maqsadlardan biri – Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak"-deya alohida ta'kidlab o'tdi. Bunda, avvalo, ta'lismi va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozimligi aytib o'tildi. Mana shunday shaxsni tarbiyalashda –boshlang`ich ta'limda faoliyat ko'rsatayotgan o`qituvchidan alohida katta kuch, mahorat, sabr matonat talab etadi.[1.3]

"Pedagogik mahorat nima?" degan savolga rus pedagogi K.D.Uchinskiy so'zlari bilan aytganda, o`qituvchi qanday o`qitish kerakligini bilishi va buni nazariy jihatdanligiga emas, balki amaliy jihatdan ham bilishi lozim. O`qituvchining pedagogik mahorati, asosan darsda ko'rindi. Chunki, dars o'zining mazmun, mohiyatiga ko'ra o`qituvchining maktabdagi eng asosiy, birinchi o'rinda tutgan ishidir". [3.38]

Mamlakatimizda ta'lismi jarayonida yuz berayotgan tub o'zgarishlar har bir ta'lismi sohasining jadallashtirishni talab etadi, yangiliklarni joriy etish yo'li esa har doim murakkab va uzoqdir. Yosh avlodni ma'naviy- axloqiy tarbiyasini

shakllantirishda milliy umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bugungi xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga odob-axloqqa doir g'oyalarni o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi"- deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruxiy va ma'naviy jarayonining mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari daraasiga olib chiqish ta'limni ilg'or darajalar asosida boyitib borish yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir.

Darhaqiqat, ertangi kun bugungi kundan boshlanadi. Mamlakatimiz kelajagi-bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizda ularning har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib yetishishiga bog'liq. Bugungi davrda boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yilgan talab ham har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iboratdr. Buning uchun u o'quvchilar va o'quvchilar jamoasini puxta o'rganishni asosan ikki yo'l bilan amalga oshirishi lozim bo'ladi. Birinchidan tomon, umumpsixologik jarayonlar nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan muayyan aniq o'quv tarbiya jarayoni tashkil etishidir.

Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z ish tajribasiga tayangan holda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini o'rganib, ular to'g'risidagi olgan ma'lumotlarini to'plab ularni sistemalashtirib boradi.

Bunda o'qituvchi bir qancha metodlarni qo'llashi mumkin:

1. Tekshirish metodi

1. Eksperimental bo'limgan metodlar:

a) kuzatish; b) suhbat; v) anketa tarqatish; g) o'quvchilar

faoliyatini natijalarini tahlil qilish;

2. Tajriba metodi

a) axloqiy masalalarni hal qiluvchi go'zallik,xususiyatlarini kerakli axborotni eslab qolish;

b) pedagogik va psixologik tajribalar.

3. **Diagnostika metodi.**

a) bilim sifatini aniqlaydigan metod;

b) aralash metod;

O'quvchining tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadigan diagnostik dastur asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarni yosh xususiyatlarini o'rganib diagnostik namunalar keltirishicha, o'quvchilarida o'z o'qituvchiga xos xususiyatlar namoyon bo'lishi aniqlangan.

1. Tarbiyalanganligi-o'qituvchida 100%-o'quvchida 80%-90%

2. Bilimi-o'qituvchida 100%-o'quvchilarda 90%-100%

Tekshirishning natijalaridan shunday xulosa deyish mumkin. Boshlang'ich sinf

o'qituvchining ko'rsatkichlari sinfdagi har bir bolaning qanday ekanligini aniq tasavvur etishga yordam beradi.

Umumiy ta'lif poydevori muvaffaqiyatining yana muhim omillari, bu o'quv darslarda foydalanadigan xilma-xil ko'rsatma-tarqatma materiallar va texnika vositalaridir. Bularsiz ta'lif –tarbiya ishining sifat va samaradorligini oshirish haqidagi gap ham bo'lishi mumkin emas.

Ko'rsatmalilik –bilimlar ko'zgusi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda, shu jumladan 1-sinfda ko'rsatma qurollardan o'rinni va unumli foydalanish juda katta ahamiyatga egadir. Ko'rsatmalari darslar o'quvchilarda juda katta qiziqishuyg'otadi va ularning tasavvurlarini kegayishiga, mustaqil fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini o'sishiga, dars materiallarini to'liq o'zlashtirishga, bilimlarni puxta tushunib olishlariga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'rganishning natijalari quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi:

1. Ta'lif jarayonida va undan tashqari vaqtarda o'quvchilar bajaradigan barcha topshiriqlar boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan qay tariqa tashkil etilganligiga qarab o'quvchi shaxsiga turli darajada ta'sir etishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'lif va tarbiya berishda o'z mas'uliyatini chuqur his etish, pedagogik mehnatiga ongli munosabati, murabbiylilik mahorati o'zining boshqa eng nozik tomonlari bilan asosan darsda ko'rindi va ular o'z o'quvchilarining xatti-harakati va xarakter xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

1. O'qituvchi dars jarayonida turli ko'rgazmalardan foydalansa, bolalarning fikrlash qobiliyatları, yozuv ko'nikmaları, hisoblash malakaları oshib boradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Dunyoqarash tabiat, ijtimiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar ham tarbiyani shakllantirishining mazmun-mohiyatidir. Har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi eng avvalo o'quvchilarni yosh xususiyatlarini o'rganish, uning natijalariga jiddiy e'tibor berish va bu o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog'i-mehnatsevarligi, bilimga chanqoqligi jamaoatchiligi, javobgarlikni his etish kabi sifatlarning yanada rivojlanish yo'llarini izlamog'i lozim. O'shandagina har tomonlama o'sib borayotgan yosh avlod kamolotiga ma'lum darajada ta'lif – tarbiyaviy jihatdan to'g'ri va samarali ta'sir etgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T:-“Xalq so'zi”. 2020. 30-dekabr soni.
2. Suxomlinskiy V.A. / sost. G.D. Gleyzer. - M. : ID SHalvy Amonashvili, 1997. – 224 b. - (Antologiya gumannoy pedagogiki).
3. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. T: O'zbekiston davlat pedagogika nashri, 1959.-465 b.
4. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. T: O'qituvchi. 2001.
5. www.ziyonet.uz